

# **Anomal sovuq ob-havo sharoitida aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida isitish tizimining holati hamda yo'llarni tozalash ishlari ko'zdan kichirildi**



Anomal sovuq ob-havo sharoitida aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida isitish tizimining holati hamda yo'llarni tozalash ishlari ko'zdan kichirildi

Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov "Hududgaz Surxondaryo" gaz ta'minoti filialida bo'lib, viloyatga yetkazib berilayotgan gaz bosimi, hozirgi holatda hududlarga yetkazib berilayotgan gaz miqdori bo'yicha mas'ullarning axborotini tingladi. Shundan so'ng, gaz bosimi tushib ketgan Termiz shahri Farovon massivida ta'minotdagi uzilishlarni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar joyiga borgan holda o'rganildi.

Viloyat rahbari mas'ullarning bu borada olib borayotgan faoliyati yuzasidan o'zining e'tirozlarini bildirib, tegishli tavsiya va topshiriqlar berdi. Manzilda faoliyat olib borayotgan gaz muhandis xodimlariga issiq ovqat va qishki kiyim boshlar berildi. Shahar mutasaddilariga "avariya" holatlarini bartaraf etish ishlarini amalga oshirayotgan xodimlarga issiq ovqat va kiyim boshlar yetkazib berish, sodir bo'lgan uzilish holatlarini tezkor bartaraf etish bo'yicha ko'mak berish vazifasi yuklatildi.

Shuningdek, shaharning Barkamol avlod va Islom Karimov ko'chalarida yo'llarga qumtuz aralashmasini sepish, muzlamalarni tozalash ishlari ko'zdan kechirilib, Obodonlashtirish boshqarmasi xodimlariga ham issiq ovqat va issiq kiyim boshlar tarqatildi.

Keyingi manzilda ko'p qavatli uylardan biriga xizmat ko'rsatuvchi boshqaruven servis kompaniyasining faoliyati o'rganildi va xonadonlarni issiqlik bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'zdan kechirildi.

Viloyat rahbari shuningdek, viloyat ko'p tarmoqli Bolalar shifoxonasining isitish tizimining ishlash holati, bemorlar va ularning yaqinlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishdi. Isitish tizimining barqaror ishlashini ta'minlash, bemorlarning

y qinlar uchun kutish joylarida sharoitlar yaratish b yicha topshiriqlar berildi.







